Shunday qilib manipulyatsiyaning tasir etish belgilari bilan ishlaydi. Aniq xolatda qanday tasir etish belgilaridan foydalanish kerak ekanligi aniqlanadi. Har bir tasir etish belgilari relevantli va texnologik tasir etish hisoblanadi.

Manipulyator o'z xoxish istaklariga erishish uchun oldindin rejalashtirgan insonning o'zgachaliklaridan foydalanib qolmasdan yangi qulayli tasir etish belgilarini izlaydi. Manipulyatorchi uchun kerakli effektini paydo etadigan belgilarni yaratadi va quyidagicha bo'ladi;

1. Faollikni keltirib chiqaradigan turlari: orzu istaklar va qiziqishlari bo'lsa
2. Faollik regulyatorini moslashtirish: maqsadli ,mazminli operatsion talablar normalar, o'z o'zini baholash, tasir etish ishonch kabilar kiradi.
3. Kerakli kognitiv diniy dunyo qarashlari haqida ma'lumot berish
4. Operatsion tuzilishi uchun kerak bo'lgan ish harakatlar bilish jarayonlari, o'z o'zini tutishi, xoxish istaklari, qobiliyatlari klassifikatsiyasi mashqlar bilan tasir etish va qayta ishlash hisoblanadi
5. Kerakli psixologik xolatga olib kelish; destabilizatsiya, charchash, hayajonlanish, eyforiya, bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, manipulyator belgilarini topadi, faqat bir «tugma» bilan maqsadga erishadi. Agarda bunday tayyor belgilar bo'lmagan holatda oldindan xuddi shunday holatga mos keladigan belgilar ishlab chiqiladi.

O'zaro bog'liklik o'rnatish, internet ma'lumotlariga qaraganda har qanday shaxslar orasida o'zaro munosabatlar tuzilishini tizimga kiritishga bo'ladi.

Tizim deganimiz partnerlarning o'zaro munosabatini aytamiz.

Emotsiya yoki hissiyot tizimi bu partner bilan bo'lgan suhbatlashuvida paydo bolgan ichki hissiyotlarimizning o'zgarishiga aytamiz. Imo ishoralar yordamida bo'ladigan kontakt sektorli kontaktga o'xshab ketadi. Operatsionallik kontaktga eng ahamiyatli tarafi shundaki boshqa insonning ish harakatlarini tushunamiz. Predmetli kontakt - o'zimizga qaratib aytilgan so'zni ishlatamiz biroq buni tushunib aytib bera olmaymiz; Sensorlik imo ishora orqali kontakt tuzishga bo'ladi lekin, predmet bilan kontakt tuza olmaymiz. Aytilayotgan fikrlar, o'ylarimizni harakatlar orqali yetkazib beramiz.

Shaxsiy kontakt darajasi insonning xoxish istaklari, ish harakatlarining individuallik ma'nosiga aytamiz.

Ruhiy kontakt bu eng buyuk qadryatlarimizni aytsak bo'ladi,

birikish «kontakt» bu- termin yoki lingvistlik formada qo'llaniladi. «O`xshashligiga qarab birikish», «belgisiz o'zgarishlariga qarab «bir narsa birikish» dep. Birinchi birikish qurollariga, ikkinchisi adresat bilan birikishiga aytamiz. V.P.Sheynov aytganidek birikish-bu o'z xulq atvorining o'zgarish yo'li bilan ikkinchi insonning senga qarab o'zgarishi. O'zining xulq atvorini o'zgartmay boshqa insonlar seni tushunishini kutish bu ham usullaridan biri hisoblanadi. Bunday holatlar yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. Agar siz o'z xulq atvoringizni maqsadga erishish uchun o'zgartirgan bo'lsangiz demak siz katta natijalarga erishishingiz mumkin. Bizlar boshqa xalq madaniyatini o'rganishimiz orqali ularning urf odatlarini hurmat qilamiz. Internetga chiqqan maqolada birikish-bu rapport tizimga tuzishdagi qobiliyat deb ataladi. Rapport (ikki yoki undan ortiq odamlar orasida bir birini tushunish, bilish, ishonch orqali paydo bo'ladigan jarayonga aytamiz). Ularning ishining yoki qiziqishining o'xshash bo'lgan holatlarda paydo bo'ladi. Qayg'uga tushgan xolatimizda tovush to'lqinlarimizni o'zgartirib muloyim gaplashishimiz «xafa bo'lma!» deb aytishimiz kerak. Bunday xarakterimiz bilan unga dalda beramiz. Sizni orzu istaklaringiz yaxshi edi biroq, so'zingiz xarakterlaringiz bilan buni ko'rsatib tushuntira olmadingiz. Buning uchun tovush to'lqinlaringizni, yuz tuzilishilishingizni shu holatga qaray o'zgartirishingiz kerak edi. Siz o'zingizning xarakterlaringiz bilan ikkinchi insonga tasir etishingiz kerak. Insonlarning aytgan so'zlariga e'tibor bergan holda rapport munosabat tuzamiz. O'zaro munosabat tuzishda siz «biroq» degan so'zning o'rniga «ham, yana» degan so'zni qo'llanilishimiz kerak. Urf odatlari ,an'analari bir biriga yaqin insonlar orasida munosabat oson tuziladi. Sababi ularning xoxish intilishlari bir biriga yaqin. Shuningdek bizlarning ruhiyatimizni qadryatlarimizni hurmat etgan insonlar bilan yaxshi munosabatda bo'lamiz.

N.L.P ning asosiy g'oyasi-kirish va birikish hisoblanadi. U o'z ichiga rapport bilan boshqa odamning dunyo qarashi hurmat qilishi kiritilgan. Birikishni boshqa yo'l bilan ham yani, V.N.Sheynov atab o'tganidek umumiy bir maqsadga

yo'naltirgan va shu maqsadga erishish uchun birgalikda faoliyat olib boriladi. O'zaro munosabatni tuzishda ushbu faoliyat ahamiyatli hisoblanadi.

Shaxslar orasidagi muhit munosabati, A.A.Bodalov tariflagandek o'zaro munosabat tuzish jarayonida psixologik muhit munosabati tuziladi. Fizik muhit o'zgarishlarga ega bo'ladi. Har qanday kontakt partnerlar bir yo'nalishga qarab tuziladi. Psixologik muhitni tushuntirish uchun quyidagi atamalar qo'llaniladi; territoriya, distansiya, vektor, temp, pauza. Ushbu atamalar orqali manipulyatorchining harakatlarini baholaymiz. Territoriya-u yoki bu partnerning shaxsiy munosabatlar orasida paydo bo'ladigan muhitga aytamiz. Kinestik darajada bu fizik territoriya bo'lsa emotsional darajada «hissiyotlar» kayfiyatga qaratilgan reaksiyalarining «o'ziniki» deb tushunishni nazarda tutadi. Operatsionallik darajada bu «mening» ishim qanday qilib ishlashim o'zimga bog'liq.

Predmetli darajada bo'lsa-mening fikrim mening xoxlagan ishim. Shaxsiy daraja men uchun eng ahamiyatli bo'lib hisoblanadi. Har qanday munosabat tuzishda boshqa insonning psixologik territoriyasiga nazar solasan. Farqi shundaki boshqaninig territoriyasiga zo'ravonlik bilan kirish orqali bo'ladi. Manipulyatorchining ikkinchi usulidan foydalanishi;

Distansiya-bu munosabat tuzishda oldindan paydo bo'ladigan qismlarga aytamiz. Bunday qismlarga fizik jarayonlarni; so'zlamadan to'xtab qolish, indamay turish, suxbat mavzusini o'zgartirishga aytamiz. Distansiya-yani muhit munosabatlar bo'laveradi, sababi munosabatlar hamisha bir xil bo'lavermaydi. Moslashish-psixologik munosabatlarning vertikal ko'rinishiga aytamiz. O'z fikrini o'zgartiradiganlar ko'pincha ustunlik pozitsiyasida bo'lib aql berish kamchiliklarini aytish orqali harakatlanadi. Ikkinchi tarafdan esa bosim o'tkazishga moslashgan harakatlarni qiladi, indamay boshini egadi, o'zini aybdor sezib maqullaydi, qarshilik ko'rsatmaydi. Bir biriga tengday munosabatda bo'lish bu, ma'lumotlar bilan bir biriga axborat almashishi bir biriga bosim o'tkazmay gaplashganda so'roq yoki darak gaplardan foydaladiganlarga aytamiz.

Internet ma'lumotlardan intsiativa bu partnerlardan biri tarafidan o'zaro munosabat harakatlarining eng daslabki boshqaruv jarayoniga aytiladi. M.P.Ershov intsiativa (boshqaruvchanlik)ga egalik qilivchi va intsiativadan foydalanish orqali, orasidagi farqni bilish kerak degan. Intsativaga egalik qilish deganda- ochiqdan ochiq munosabat jarayonlarini boshqarishga aytamiz.

-Intsiativa egalik qilish- deganda real huquqimizni bo'lish degan ma'noni anglatadi. Intsiativadan foydalanish deganimiz kim intsiativaga egalik qilishi kerak degan huquqidan foydalanishga aytiladi.

Intsiativadan foydalanish huquqiga egalik qilish partnerlarning birining ikkinchisining ustidan ko'proq imkoniyatga ega bo'lishiga olib keladi. Intsiativa ga egalik qilgan inson ko'pincha intsiativadan foydalanish huquqiga egalik qilish partnerlarinining biriga o'z maqsadlariga erishishida qo'shimcha imkoniyat tug'diradi. Shuningdek taraflarning bir biri ustidan hokim bo'lishga yoki boshqarishga harakat qiladi. Bu esa o'zaro tortishishlarga olib keladi va quyidagicha yani;

-initsiativaga egalik qilish –agarda partner tarafidan qarshilikga uchramagan bo'lgan holatda

-initsiativani tortib olish- partnerdan tezda qarshilik qilmasdan aylanib o'tishi orqali bo'ladigan harakatlarga aytamiz.

-Foydalanish- ma'lum vaqt oralig'ida initsiativani qo'lda ushlab turish

-initsiativadan ayrilish deganda –raqobatga rozi bo'lib bir kelishimga kelishiga aytamiz.

A.A.Leontev tariflagandek manipulyativlik tasir etishning real ko'rinishi bu yo'nalish faoliyatidagi harakatidir.

Manipulyatorchining harakati aniq maqsadlarni «mif», «afsonalar» yashirin turda bo'lib hisoblanadi. Yashirin turdagi ma'lumot adresatga psixologik

tarafdin tasir etadi. Yashirin tasir oldin tayyorlagan «mif», «afsona» ga suyangin holda bo'lib o'zaro suhbat orasida manipulyatorchi tarafdin kiritgan.

Tasir etishning bosh maqsadi asosiy muommalarni yechish hisoblanadi. Tasir etishning ikki vektori bo'ladi bular; reativlik asos va manipulyativlik harakatlarga ikkinchi tarafdin esa moslashish hisoblanadi. Ayrim vaqtlarda manipulyativlik harakatlar asosiy vektorlarning faoliyatini boshqarishga aytiladi.

Vektorlik tasirlarning ko'p bolishi bir vaqtda bir necha adresaatlarning psixologik belgilariga tasir etishi uchun kerak bo'lsa, ikkinchi holatda vektorlik tasirlardan ko'p bo'lishi. Ikkinchi holatda vector tasirdan ko'p bo'lishi insonlar harakatining motivatsiya harakatarining ko'pligidan kelib chiqadi. Vektorlar mazaykasiining «o'qib olish» deganda insonning real harakatlar yordamida masalan yuzimiz yoki qo'llarimiz orqali imo ishora bilan qarash

Dinamik suhbat bu- eng dastlab pauzalar muhitining tasiriga aytamiz. Suhbatlashish tempi – o'zaro munosabatlar jarayonida paydo bo'ladigan tezlikka aytamiz, Informatsion-kuch solish yo'li bilan ma'lumotlardan foydalamiz.

O'zaro shaxsiy munosabatlarda kuch ishlatish o'z kuchiga ega bo'lish-tasir etgan vaqtda muallif belgili ayirmachiliklarga ega ekanligi bular;

- 1) Statusli: rolik pozitsiyasi, lavozim yoshi
- 2) Izchillik: klasifikatsiyasi, argumentlari, qobiliyati, bilimi kuchli qo'llab quvvatlashga ega bo'lishi-konkret ushinch toifagi insonlarga ishonch
- 3) Konvensionallik ayirmachilik- belgisi umumiylik xulq odob normalariga ishonchlari; dasturli odob ikromlik moral
- 4) Professiallik kuchlar-partnerlar bilan o'zaro munosabatlardan kelib chiqadi.
- 5) Dinamik kuchlarga temp pauza initsiativa kiradi
- 6) Pozitsion ayirmachilik-avval yoki kelajakdan hissiyotlardan yaxshi munosabat tuzishda qarshilik ko'rsatmagan holda harakatlardan foydalanmasligi

7) Kelishim-birgalikda kelishimga kelish o'z ichiga yuridik, morallik va ratsionalik kuchga ega bo'lish.

Partnerlardan aziz taraflaridan foydalanish-bular mukofatni yaxshi ko'rish bolalarni juda yaxshi ko'rish insonlar ustidan boshqarishni yaxshi ko'radiganlarni aytish mumkin.

Informatsion bezalishi, Informatsion bezlishi.

T.M.Nikolaevning asarlarida informatsional tasir etish usulidan foydalanishning maqsadi psixologik va manipulyativlik partnerga bosim etish.

1) «Universal turda aytilgan so'zlar» aniqlash qiyin bo'lgan, shuning uchun bu masala qo'llanilmaydi.

2) genralizatsiyalash (yakuniyni kaengaytirish) vaqtni va insonlarni sinflarga bo'lish..

3) hammaga ma'lum qoidalar

4) Suppozitsiya maskirovkalash yani yashirish

5) Noma'lum referentlik indeks

6) Harakatlarning atamalarining holatlarini ko'paytirish

7) «komminikativlik sabotaj» oldingi replikalarga itibor bermay yangi javoblar berish

(Stenberg Karasik) asarlarida 2 so'zlash manipulyatsiyasining turlarini uchratamiz.: a) aniq maqsadi bo'lmasligi b) emotsional baholash korreksiyalarning almashishi. Muallif takidlagandek manipulyatorchining o'z statusining pasayib ketishidan qo'rqishi shuningdek soxta o'z statusining kuchayib ketishiga harakat etadi. Shu orqali kerak ma'lumotlarga ega bo'lish huquqiga erishish uchun harakat qiladi.

B.P.Sheynov psixologik tasir etishni (NLP texnikasidan) foydalangan.

1) presuppozitsiya-lingvistlik usullardan ma'lumotlarning almashtirishida foydalanish.

2) «tushunarli va tabiiy» so'zlardan foydalanish

3) modallik operatorlarchilarning imkoniyatlari

Ko'pchilik olimlar orasida NLP texnikasini psixologik tarafdin yuqori darajada texnika deb qaralgan. E.Shostorov bolalarni eng kuchli manipulyatorchilar deb tariflagan. U bir necha qismlardan iborat.

- 1) Eng keng tarqalgan turi «Kichkina hiylasi» tipi. Bunday bolalar o'zlarini kuchsiz, xotirasi past lekin o'zi xoxlagan narsalarga erishishga harakat qiladi. U o'zlarini ishyoqmas emas balki o'zini axmoq etib ko'rsatadigan odamlarning ustidan manipulyatsiaga talab o'zi ishlaydigan narsalarga kattalarni ham aralashtiradi

- 2) Ikkinchi tipi kichkina bolalarni manipulyatorlik tipining «kichkina dictator». U katta odamlarni o'yin sifatida yani oyoqlarini urib o'jarligi bilan boshqaradi.

- 3) Uchinchi tipi „Freddi tulki” nomi berilgan. U o'zi yig'lash orqali etibor qaratadi. Kichkina vaqtida o'rgangan odatlarini ham maktabga borganda ham qo'llay boshlaydi.

- 4)To'rtinchi tipga bolalik manipulyatori «Yovuz Tom» nomini olgan tip. U urushqoq, tepish, yo'li bilan o'z maqsadiga erishadi. U uchun obru kerak emas. Ular o'zlariga ishonadigan tip hisoblanadi.

- 5) Beshinchi tipdagi manipulyatorchi «Karl yoritqich» yoki birinchi bo'lishga intiladi. Bu Tom va Freddining birgalikdagi faoliyati. Karl tipidagi bolalar oilada ikki farzand bo'lgan holatda paydo bo'ladi. Ular ko'pincha baxslashadi

E.Shostomning fikricha yosh o'spirinlardagi manipulyatorlik yig'lash, qo'rqitish, solishtirish. Ota-onasining birini ikkinchisiga qarshi qo'yish, yolg'on gapirish kiradi. Ijtimoiy psixologiya ekspremental ishlarida internet tashkilotlarda ko'p ma'lumotlar bor. Misoli, kommunikatorning tasiri kuchliroq bo'ladi agar u gaplashganda xonadagilarni dunyoqarashi buladi. Agarda qarshi taraf dunyoqarashi to'g'ri bo'lmasa manipulyatorchi o'z fikrini bildiradi.

1.4. O`spirinlarning psixologik xususiyatlari

15 yoshdan 18 yoshgacha bo`lgan davr o`spirinlik davridir, o`spirinlar asosan 9-sinf, kasb-hunar kollejlari va litsey o`quvchilaridir.

Bu davrda o`spirin jismonan baquvvat, o`qishni tugatgach, mustaqil mehnat qila oladigan, oliy maktabda o`zini sinab ko`radigan imkoniyatga ega bo`ladi, ma`naviy jihatdan etuklikka erishadi. O`spirin 16 yoshda mamlakat fuqarosi, 18 yoshida esa saylash xuquqiga ega bo`ladi. Bularning barchasi o`spiringa fuqaro sifatida ijtimoiy jihatdan voyaga etishi, hayotda o`z o`rnini topishi, o`z taqdirini o`zi hal qilishi va etuk shaxs sifatida ma`naviy o`sishi uchun jamiki shart–sharoitlarni yaratadi. O`spirinlik-bu shaxsning fuqaro sifatida shakllanishi, ijtimoiy jihatdan etilishi davridir.

Ilk o`spirinning shaxsi ijtimoiy hayotda maktab, litsey yoki kollej jamoasida, tengqurlari bilan munosabatlarda egallagan mutlaqo yangicha mavqei ta`sirida, o`qish va turmush sharoitidagi o`zgarishlar ta`sirida tarkib topa boshlaydi.

Mazkur davrning yana bir xususiyati–mehnat bilan ta`lim faoliyatining bir xil ahamiyat kasb etishidan iboratdir. Kollej va litsey o`quvchilari ijtimoiy hayotdagi dolzarb vazifalarni hal qilishda faol ishtirok eta boshlaydilar. Ijtimoiy hayotda faol qatnashish, ta`lim xarakterining o`zgarishi yigit va qizlarda ilmiy dunyoqarash, barqaror e`tiqodning shakllanishiga, yuksak insoniy his-tuyg`ularning vujudga kelishiga, bilimni o`zlashtirishga ijtimoiy yondoshish kuchayishiga olib keladi.

Hayotda o`z o`rnini topishga intilish, kasb-hunar egallash, ixtisoslikni tanlash, istiqbol rejasini tuzish, kelajakka jiddiy munosabatda bo`lishni keltirib chiqaradi. Biroq bu davr kuch –g`ayrat, shijoat, qahramonlik ko`rsatishga urinish, jamoat, jamiyat va tabiat hodisalariga romantik munosabatda bo`lish bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farq qiladi. Bu davr dunyoqarash, ma`naviy e`tiqodlarning shakllanishi davri, ongning taraqqiy etishi davridir. Romantika va orzu –havas qilish va uni yaxshilashga intilish, o`rtoqlik, do`stlik, birinchi sevgi kabi hislarning uyg`onish davridir. Ayniqsa turmush va o`qish faoliyatlarining yangicha shart-sharoitlari o`quv jamoasidagi o`zgacha vaziyat, o`spirinlarning kollej yoki litseyda egallagan mavqei, jamoatchilik ishlarida tajriba orttirishlari ular oldiga yuksak talab hamda ma`suliyatli vazifalar qo`yadi.

O`spirin shaxsining har tomonlama kamol topishida aqliy faoliyatlaridagi o`ziga xos xususiyatlardan tashqari, ularning hissiyotlari, iroda va shaxslaridagi o`ziga xos individual xususiyatlarning roli ham nihoyatda kattadir.

O`spirindagi o`zini anglash turmush, o`qish, mehnat va sport faoliyatlari taqozosi bilan namoyon bo`ladi. O`quv dargohidagi odatlanilmagan vaziyatning, shaxslararo munosabat va muloqot ko`lamining kengayishi o`zining aqliy, ahloqiy, irodaviy his-tuyg`ularining xususiyatlarini oqilona baholash, qo`yilayotgan talablarga javob tariqasida yondoshish o`zini anglashni tezlashtiradi. Ular avval, o`zlarining kuchli va zaif tomonlarini, yutuq va kamchiliklarini, munosib va nomunosib qiliqlarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo`ladilar, o`z shaxsiy fazilatini, xulq-atvorini, aqliy va jismoniy mehnat faoliyatini taxlil qilish, qiyosiy baholash mayli kuchayadi. O`spirin o`smirga qaraganda o`z ma`naviyati va ruhiyatining xususiyatlarini to`laroq tasavvur eta olsa ham, ularni oqilona baholashda kamchiliklarga yo`l qo`yadi. Natijada u o`z xususiyatlariga ortiqcha baho berib, manmanlik, takabburlik, kibrlanish illatiga duchor bo`ladi, o`rtoqlari va o`qituvchilariga g`ayritabiiy munosabatda bo`la boshlaydi, ayrim o`spirinlar esa, o`z xatti – harakatlari, aqliy imkoniyatlariga past baho beradilar.

O`spirinlik yoshida yana bir xususiyat – murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissi, o`z qadr –qimmatini e`zozlash, sezish va fahmlashga moyillikdir. Masalan, o`spirin yigit va qiz sezgirlik deganda nozik, nafis holatlarning farqiga borish, zaruratni tez anglash, xolisona yordam uyushtirishni shaxsning nafsoniyatiga tegmasdan amalga oshirishni tushunadi. O`spirin o`zining ezgu niyatini baholashga jamoada o`z o`rnini belgilash nuqtai nazaridan yondoshadi, chunonchi, “O`zim tanlagan mutaxassislikka yaroqlimanmi?” “Jonajon respublikam, ota-onamga munosib farzand bo`la olamanmi?” “Jamiyatning taraqqiyotiga o`z ulushimni qo`sha olamanmi?” degan savollarga javob qidiradi. O`qituvchi unga juda ustalik, ziyraklik bilan yordam berishi, har bir muloxazasida pedagogik – psixologik nazokatga rioya qilishi kerak, shunda o`spirin yigit- qizlarda o`z kuchiga va imkoniyatiga ishonch hissi paydo bo`ladi.

O`spirin o`quvchida o`zini anglash negizida o`zini o`zi tarbiyalash istagi tug`iladi va bu ishning vositalarini topish, ularni kundalik turmushga tadbiiq qilish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin o`zlarining o`zini o`zi tarbiyalash psixologiyasidagi mavjud nuqsonlarga barham berish, ijobiy xislatlarni

shakllantirish bilan kifoyalanib qolmay, ularni kattalarga xos ko'p qirrali umumlashgan idealga mos ravishda tarkib toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

O'spirinlarda ideallar bir necha ko'rinishda namoyon bo'lishi va aks etishi mumkin. Masalan, ular taniqli kishilarning qiyofalari, badiiy asar qahramonlari timsolida o'zlarida yuksak fazilatlarni (sifatlarni) gavdalantirishni orzu qiladilar. Biroq yigitlar bilan qizlar o'rtasida ideal obrazini tanlashda katta farq bo'ladi. Masalan, qizlar ko'pincha mehnatkash ayolning jozibali, nazokatli, iboli, iffatli jamoat arbobining, badiiy asar qahramonining xususiyatlari mujassamlangan qiyofalarni ideal darajaga ko'taradilar. Ammo ayrim o'quvchilar ideallashtirishga arzimagan salbiy xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslarga taqlid qiladilar –baquvvat yo'lto'sar, kishilarni laqqilatib ketadigan qallob, kinofil`mdagi “mafiya boshlig`i” kabilar emasligini tushuntirish kerak.

O'qituvchi va tarbiyachilar o'quv yurti bilan birgalikda ana shunday ideallarni ustalik va ehtiyotkorlik bilan fosh etishlari, o'spirin yigit – qizlarga taqlid qilish uchun munosib namunalar tanlashda yordam berishlari kerak. Bu jihatdan o'qituvchi va tarbiyachilarning shaxsiy namunasi va kattalarning obro'si juda katta rol o'ynaydi.

O'spiringa o'z shaxsining xususiyatlarini, xarakter xislatlarini ob`ektiv ravishda taxlil qila bilishda, irodaviy sifatlarini tarbiyalashning aniq maqsadi va sabablarini anglab etishida, o'zining nuqsonlarini aniq his qilish va shunga qarab xarakterning qanday xususiyatlarini o`zida rivojlantirishi zarurligini, qaysi xususiyatlarga esa barham berishi kerakligini hal etishda yordam ko`rsatish zarur.

Shuni nazarda tutish kerakki, o'spirinlar ba`zan (garchi o'smirlarga qaraganda ancha ozroq bo'lsada) o'zlarida ayrim irodaviy sifatlarni noto'g'ri usullar bilan rivojlantirishga harakat qiladilar. Ular soxta qo`rqmasliklari bilan o'zlarini botir qilib ko`rsatishga, beixtiyor xatarli xatti-harakatlarga moyil bo'ladilar. O'zlarida qo`rqmaslikni, irodani tarbiyalamoqchi bo'lib, ba`zan elektr simining ochiq joylarini ushlaydilar, baland qirg`oqdan daryoga sakrab, hayotlarini xavf ostida qoldiradilar. Matbuotda xabar qilinishicha, o'ninchi sinf o'quvchilaridan biri peshonasini tirishtirmasdan olov tepasida qo`lini tutib turgan va o'z irodasini chiniqtirmoqchi bo'lgan. Yana bir safar ikkinchi qavatdan sakrab, o'rtoqlarini qoyil qoldirmoqchi bo'lgan, bir kuni ximiya darsida esa sog`liq uchun zararli bo'lgan bir necha tomchi aralashmani yutib yuborgan, natijada kasal bo'lib qolgan. Yana bir o'spirin yigit bo`ron turgan

paytda daryo bo`ylab mutlaqo keraksiz va juda xatarli sayohat qilgan hamda muzdek suvda halok bo`lishiga oz qolgan.

O`spirinlarga bunday mashqlarning hech bir ijobiy natija bermasligini tushuntirish zarur. Irodali bo`lish, irodaviy sifatlarni chiniqtirish hayotda uchrab turadigan haqiqiy qiyinchiliklarni engish uchun zarurligini, sun`iy, soxta to`siqlarni engishni mashq qilish yo`li bilan hech narsaga erisha olmasliklarini ular ongiga etkazish, shuningdek, ularni oqilona, maqsadga muvofiq, samarali usullardan foydalanish yo`llari bilan tanishtirish, haqiqiy chiniqish malakalari bilan qurollantirish –jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug`ullanish, aqliy jihatdan o`zini chiniqtirish (o`quv topshiriqlarini o`z vaqtida bajarib borish) mehnat ko`nikmalarini o`zida mujassamlashtirishning o`spirin yigit va qizlar kelajak hayoti va faoliyatida muhim o`rin tutishini, xarakter kundalik qiyinchiliklarni engishda chiniqishini tushuntirish kerak.

O`spirinlarda irodaviy sifatlarning va xarakter xislatlarini tarbiyalash o`quv dargohidagi jamoatchilik tashkilotlari, pedagoglar jamoasining tarbiyaviy ta`siri doirasida amalga oshishi shart. Zero, o`spirin shaxsining takomillashuvi jamoada munosib o`rin egallash, ijtimoiy burchni anglash va foydali mehnatga qiziqishiga xizmat qilishi kerak. Jamoaning qiyinligi borgan sari ortib boradigan topshiriqlarini bajarishga odatlanar va tobora ortiq mustaqillikni hamda tashabbuskorlikni talab qiladigan harakatlarni amalga oshirar ekan, o`spirin o`zida zaruriy irodaviy sifatlarni tarkib toptiradi, muvofaqiyatli irodaviy harakatlar tufayli o`z kuchiga ishonch xosil qiladi, o`sayotganini sezadi va boshqalar bilan birgalikda qiladigan faoliyatidan tobora ko`p qanoatlanish hissini kechiradi.

O`spirinlarda balog`atga etish tuyg`usi takomillashib borib, o`zining o`rnini belgilash va ma`naviy dunyosini ifodalash tuyg`usiga aylanadi. Bu hol uning o`zini alohida shaxs ekanligini, o`ziga xos xislatini tan olinishiga intilishida aks etadi. Bunga esa modaga mayl qo`yish, murakkab tasviriy san`atga, musiqaga, kasb-hunarga qiziqishini namoyish qilish yaqqol dalildir.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, o`spirin qizlar katta yoshdagilarning ta`siriga osonroq beriladilar, o`spirin yigitlar esa kattalardan ko`ra tengdoshlari ta`siriga ko`proq beriladilar. Shuning uchun o`spirin shaxsining tarkib topishiga o`quv dargohidagi muhit, xususan guruh jamoasi, rasmiy va norasmiy tengqur boshliqlar kuchli ta`sir etadi, guruh jamoasi umumiy maqsadni belgilashga, jamoa a`zolari o`rtasida iliq munosabatlar o`rnatishga, shaxsiy va jamoatchilik munosabatlari rivojlanishiga imkoniyatlar yaratadi.

Jamoa ta`sirida matonatlilik, jasurlik, sabr-toqatlik, kamtarlik, intizomlilik kabi fazilatlar takomillashadi va xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, laganbardonlik, dangasalik, qo`rqoqlik, g`ayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi. Jamoa a`zolari o`rtasidagi ahillik, birlik, yagona maqsadga intilish, iliq psixologik iqlim mavjud salbiy xatti-harakatlarni yo`qotish uchun xizmat qiladi.

O`spirin shaxsining shakllanish jarayonida jamoat tashkilotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning yuksak talablar qo`yishi natijasida o`spirinlarda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, mas`uliyatlilik, tanqidiylik singari fazilatlar barqarorlashadi, g`oyaviy-siyosiy vatanparvarlik, hamkorlik tuyg`ularini mukammal bosqichga ko`taradi. Ana shularni kuzatib tadqiq etgan psixolog L.I.Umanskiy o`spirinlardagi tashkilotchilik qobiliyati o`zaro uzviy bog`liq quyidagi qismlardan iboratligini ta`kidlaydi:

1. Tashkilotchilik tuyg`usi (psixologik topqirlik, kashfiyotchilik, odob, amaliy, aql-idrokda o`z ifodasini topadi)

2. Tengdoshlariga emotsional-irodaviy ta`sir ko`rsatish imkoniyati (muammolar echimiga jalb qilish, ularning kuch g`ayratini biriktirish)

3. Tashkilotchilik faoliyatiga moyillik (emotsional his-tuyg`u, ijobiy munosabat, qat`iy qiziqish va x.k)

L.I.Umanskiyning fikricha, o`spirin namunali tashkilotchi bo`lishi uchun unda quyidagi xislatlar bo`lishi kerak: a) ahloqiy xislatlar –jamoatchilik, samimiylik, tashshabbuskorlik, mehnatsevarlik; b) irodaviy xislatlar-qat`iyat, batartiblik, intizomlilik; v) emotsional hislar –hushchaqchaqlik, yangilikni his etish, o`z kuchiga ishonch va boshqalar.

O`spirinlarni yana bir muhim xislati ularda yuksak darajada do`stlik, o`rtoqlik, ulfatchilik, muhabbatning vujudga kelishidir. Shu his-tuyg`ular yigit va qizlarning ma`naviyati va psixologiyasida qanday tus olishiga qarab, tarbiyaviy chora va tadbirlarni amalga oshirish yaxshi natija beradi. Bu yoshdagi do`stlik o`zidan kichiklar orasidagi do`stlikdan o`z motivlarining chuqurligi va uning oldiga qo`yilgan talabalarning yuksakligi bilan farq qiladi, beg`arazligi, bir-biriga ishonchi, doimiy yordamga tayyorligi, birgalikdagi faoliyatlarida bab-baravar harakat qilish bilan ajralib turadi. Psixolog tili bilan aytganda, do`st-bu “Alter ego”, ya`ni ikkinchi “Men” bo`lib , u o`sha paytdagi “Men”ning bir qismi sifatida idrok qilinadi. Bu shunday odamki, shaxs u bilan barcha dardu-hasratlarini muhokama qiladi, muammolarini uning oldiga to`kib soladi. Do`stlikni asosiy sharti –o`zaro bir-birini tushunish, shu shart bajarilmasa, do`stlik haqida gap bo`lishi mumkin emas. Agar ana shunday tushunish bo`lsa, do`stlar gap –so`zsiz ham, qiliqlar, yuz ifodasi, yurish-

turishiga qarab ham bir-birlarini tushunib olaveradilar. Do`stlikning boshqa intim, emotsional xislatlardan farqi shuki, u odatda bir jins vakillari o`rtasida bo`ladi va do`stlar odatda 2 kishi, ayrim hollarda 3-4 kishi bo`lishi mumkin. Ikki jins vakillari o`rtasida ham do`stlik bo`lishi mumkin. Faqat u ko`pincha tanishuv bilan sevgi- muhabbat o`rtasidagi oraliqni to`ldirishga xizmat qiladi. do`stlarga xos bo`lgan sifatlarga bir-birini ayash, g`amxo`rlik qilish, shaxsiy muammolarga befarq bo`lmaslik, qo`llab quvvatlash, mehr kabilar kiradi. Ularing ardoqlanishi do`stlikni uzoq davom etishi va ikkala tomon manfaatiga mos ishlarni amalga oshirishga undaydi. Do`sti yo`q o`spirin o`zini juda baxtsiz, nochor hisoblaydi. Ayniqsa, agar do`sti xoinlik qilsa yoki uning kutishlariga zid ish qilsa, bu holat juda qattiq ruhiy iztiroblarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham har bir yosh o`z do`stini xafa qilib qo`ymaslik, uning ko`ngliga qarab ish qilishga harakat qiladi. Agar ilk o`spirinlikda do`stlik mazmunan ancha yuzaki, bevosita muloqot maqsadlari asosida tashkil etilgan bo`lsa, yosh o`tgan sari u hayot mazmuni va yuksak qadriyatga aylanib boradi.

Agar do`stlik attraktsiya (lotincha attrahere “yoqtirish”, “o`ziga jalb etish” bir insonning boshqa bir insonga ijobiy munosabat asosida yoqishi va yoqtirishi, o`zaro moyillikni tushuntiruvchi holat) namoyon bo`lishining birinchi ko`rinishi bo`lsa, sevgi qalblar yaqinlashuvining muhim alomatidir. Sevgi bu nafaqat hissiyot, balki boshqalarni seva olish qobiliyati hamda sevimli bo`la olishdir. Shuning uchun ham o`spirinlar uchun bu hissiyotning borligi juda katta ahamiyatga egadir. Aynan o`smirlik va ilk o`spirinlikdagi sevgi beg`ubor, samimiy bo`lib, yosh o`tgan sari uning mazmuni boyib, boshqa qadriyatlar ham o`rin egallay boshlaydi, o`smir bilan o`spirin sevgisida ham sifat farqlari bor. Masalan, o`smirlar bir-biriga mehr qo`yganda ko`proq tashqi qiyofalari, intellektual imkoniyatlari va ijtimoiy mavqelariga e`tibor beradilar, haqiqiy sevgi o`spirinlik yillarining oxirlarida paydo bo`lib, uning asosiy mezonini endi tashqi belgi va afzalliklar emas, balki insoniy fazilatlar hisoblanadi.

O`spirinlik davrida vujudga keladigan his-tuyg`ularni to`g`ri iroda etish, yigit va qizlarga sevgi munosabatlarining naqadar nozikligini, bo`lajak oilaning baxti haqidagi tushunchalarni to`g`ri anglatish yaxshi natija beradi. Yigit va qizlarning ma`naviy olamida uchraydigan ayrim ziddiyatlarni bartaraf etishda, ularni kelajakda oilaning taqdiriga yuzaki munosabatda bo`lmaslikka o`rgatishda va oila qurishga tayyorlashda jinsiy tarbiya muhim ahamiyatga molikdir.

Ota-onalar va o`qituvchilar yigit va qizlarga sevgining ikki turi – shahvoniy tuyg`u zaminida vujudga keladigan beqaror sevgi va chinakam do`stlik, insoniy munosabatlar asosida paydo bo`ladigan haqiqiy sevgi boriligini tushuntirishlari lozim.

O`spirin yigit va qizlarga erkak va ayolning munosabatlarini yotig`i bilan tushuntirish ota-ona, shifokor, psixolog va o`qituvchilarning muhim vazifalaridir. O`spirinlarni turmush qurishga tayyorlashda, o`quv yurti bilan oilaning hamkorligi zarur, ro`y berishi mumkin bo`lgan ruhiy, jismoniy iztiroblarning oldini olishda hamkorlikka tayanib ish ko`rish kerak bo`ladi.

Ota-onaning o`zaro yaxshi munosabatlari, mehribonligi, g`amxo`rligi oiladagi farzandlarning munosabatlarini to`g`ri shakllantirishga yordam beradi. Ona qizida muloyimlik, qizlarga xos oriyat, uyatchanlik, ibo, iffat kabi fazilatlarni tarbiyalash bilan birga, unga uy-ro`zg`or yumushlarini ham o`rgatishi lozim. Aks holda nimalar bo`lishini ma`naviy qashshoq, engil-elpi hayotga ko`nikib, tubanlik botqog`iga botib qolgan ayrim ayollarning ayanchli qismatidan misollar keltirish orqali tushuntirish zarur.

Oiladagi tarbiyaviy ishlar maktabda mustahkamlanishi va rivojlantirilishi, o`spirinlarni turmush masalasiga ilmiy nuqtai nazardan qarashga o`rgatish, yigitning burchi qizni avaylash, uning sharm-hayosini paymol qilmaslik, taqdiriga yuzaki qaramaslik, qiz esa o`z navbatida uyatchan, sharmi-xayoli, qizlarga mos g`ururli bo`lishi zarurligini guruh rahbari, psixolog, o`qituvchilar o`zaro suhbat, savol-javob, munozaralar uyushtirish orqali o`spirin yigit-qizlar ongiga etkazishlari kerak.

Ko`pchilik ota-onalar o`quvchilik yillarida paydo bo`ladigan sevgi hissidan biroz cho`chiydilar, uni cheklashga, hattoki, qizlarga taqiqlashni ham afzal ko`radilar. Lekin aynan shu hisning borligi yoshlarni ulug`vorroq, sammimiyroq, har narsaga qodir va kuchliroq qiladi.

Olimlar sevgining yoshlarda paydo bo`lishi va uning psixologik taxlilini o`rganishgan. Ma`lum bo`lishicha, sevgining dastlabki bosqichi –o`zaro yoqtirib qolish –simpatiya bo`lib, bunda asosan sevgi ob`ektining tashqi jozibasi rol` o`ynaydi. Masalan, o`zbek xonatlasini chiroyli qilib tiktirib kiyib olgan qizchanning davrada paydo bo`lishi, tabiiy ko`pincha yigitlarning e`tiborini beixtiyor tortadi. Ularning ko`pchiligi birdaniga, bir vaqtda aynan shu qizchani “yoqtirib” qolishadi. Lekin davradagi qaysi yigit unga ham ma`lum jihatlari bilan yoqib qolsa, o`zaro simpatiya shu ikki shaxs o`rtasida

ro'y beradi. Vaqtlar o'tib bu ikki yosh bir necha marta uchrashib turishsa, oddiy yoqtirish sevgiga aylanishi mumkin.

Yana shu narsa aniqlanganki, sevgi bilan bog'liq hissiyotlar har bir jins vakilida o'ziga xos xususiyatlarga bog'liq ekan. Masalan, o'spirin yoshlar qizlarga nisbatan romantizmga beriluvchan, tezgina yaxshi ko'rib qoladigan bo'lisharkan. Ularning tasavvuridagi sevgi ancha romantik, ideal ko'rinishga ega bo'ladi. Qizlar esa yigitlarga nisbatan sekinroq sevib qolishadi, lekin sevgini unutish, undan voz kechish ularda osonroq kecharkan. Agar yigitlar bir ko'rishdayoq yoqtirib qolgan qizni sevib ham qolish ehtimoli yuqori bo'lsa (eksperimentlarda sevgi bilan simpatiyaning korrelyatsion bog'liqligi kuchli), qizlarda bunday bog'liqlik ancha past ekan, ya'ni hamma yoqtirganlarini ham sevmas ekan, umuman simpatiyaning paydo bo'lishi biroz qiyin ekan.

Bundan tashqari, o'spirinlik yillardagi sevgi va muhabbat hissi nafaqat qarama-qarshi jins vakiliga qaratilgan bo'ladi, balki aynan shu davrda otanasining qadrlanishi va ularga nisbatan sevgi – muhabbat, yaqinlari – akakalar, opa-singil, hayotda ibrat bo'ladigan kishilarni yaxshi ko'rish, Vatanni sevish kabi oliy hislar ham tarbiyalanadi. Shuning uchun ham haqiqiy yuksak muhabbat sohiblari bo'lmish yoshlarni tarbiyalash – jamiyatda insoniy munosabatlarni barqarorlashtirish, odamlar o'rtasida samimiy munosabatlar o'rnatish va ma'naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ta'limning barcha bosqichlarida ma'naviy tarbiyaning ajralmas bo'lagi sifatida ana shunday samimiy munosablarni tarbiyalash, targ'ib etish, kerak bo'lsa, ana shunday sevgi va sadoqat haqidagi kadriyatlarimizni ular ongiga singdirishimiz kerak. Sevgi va muhabbat hislari keng ma'noda – Vatanga, yurtga, borliqqa, kasbga va yaqin kishilarga qaratilgan bo'lishi mumkin. Yuksak his - tuyg'ularning eng oliysi Vatan tuyg'usi bo'lib, u tuyg'u inson bolasining ilk yoshlik davridanoq ongga va qalbga singib boradi. Zero Vatan hissi, shu Vatanning egasi bo'lmish xalqini bilishdan, uning qadriga etishdan, nimalarga qodir bo'lganini tan olishdan, buyukligini e'tirof etishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizak tushuncha bo'lib, birini his qilish uchun ikkinchisi bilish kerak. Shuning uchun O'zbekiston deganda o'zbek xalqini tushunamiz, o'zbezis O'zbekistonni xayolga keltira olmaymiz. Vatan hissi – xalqni sevmok, hurmat qilmoq, qadriga etmoq va e'tirof etmoqdir. O'zbekistonliklar uchun, o'zbekistonlik yoshlar uchun, shu yurt, shu tuproqni sevish, uning qadriga etish – buyuk ne'mat va shu bilan birga yuksak mas'uliyat hamdir.

E`tiqod shaxsning shunday ongli yo`nalishiki, unga o`z qarashlari, printsiplari va dunyoqarashiga mos tarzda yashashga imkon beradi. E`tiqodning predmeti turlicha bo`lishi mumkin – Vatanga e`tiqod, dinga, kasbga, ahloqiy me`yorlarga, go`zalikka va shunga o`xshash. O`spirinlik yoshida ahloqiy e`tiqodning, ahloqiy ongning roli kuchayib borishi bilan ajralib turadi. Pedagoglar va tarbiyachilar yigit va qizlardagi ahloqiy e`tiqodning mazmuniga befarq qaramasliklari, demokratik ruhdagi to`g`ri ahloqiy e`tiqodning tarkib topishiga alohida e`tibor berishlari zarur. O`spirinlarning Vatanga, xalqqa, kasbiga, fanlarga, ahloqiy me`yorlarga bo`lgan e`tiqodi ularning mustaqil jamiyatdagi hayoti va faoliyati ta`siri ostida, jamoa ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishi ta`siri ostida rivojlanadi, ahloqiy e`tiqodning mazmuni va mohiyatini ancha chuqur tushuna boshlaydilar. O`spirinlar ko`pgina ahloqiy tushunchalarning ijtimoiy jihatdan ko`p ma`noli ekanligi bilan bog`liq eng nozik tomonlarini ham sezishga qodirdirlar. Burch, vijdon, shaxsiy g`ururlik va o`zining qadar –qimmatini bilish tuyg`ulari haqidagi eng murakkab tushunchalar o`spirinlarni chuqur va har tomonlama tushunib olish uchun etarlidir, ular o`spirinlardan shu jihatdan ham farq qiladilar.

Misollar keltiramiz.

O`spirinlar jamoa bo`lib muhokama qilish va fikr almashish jarayonida bir-birlarini to`ldirib, o`qituvchining yordamisiz eng murakkab ahloqiy tushunchalarni juda tezlik bilan tasvirlaydilar va ularning mazmunini ochib beradilar.

“Vijdonlilik” tushunchasi (X sinf o`quvchisi) “Vijdonli kishi nima bilan ajralib turadi? Avvalo, u xalq mulkini va shaxsiy mulkni hurmat qiladi, hech qachon bironing narsasini olmaydi, munofiqlik qilmaydi, vijdonlik kishi hech mahal mug`ombirlik qilmaydi, yolg`on gapirmaydi, hamisha va hamma sharoitda haqiqatni gapiradi. Albatta, har – xil vaziyatlar bo`ladi. Masalan, dushmanni (shaxsiy dushmanni emas, balki jamiyatning, xalqning dushmanini) xiyla bilan engish va uni aldash mumkin, bu ham vijdonan qilgan ish bo`ladi. Agar ish manfaatlari talab qilgan holda dushmanga haqiqatni aytish vijdonsizlikdir. Vijdonli kishi o`z so`zida qattiq turadi, o`z ishiga halol munosabatda bo`ladi, unga o`zining butun kuchini sarflaydi, o`z vazifalarini so`zsiz bajaradi. Bunday kishi o`ziga tanqid nazari bilan qaraydi va o`ziga talabchan bo`ladi, agar xatoga yo`l qo`ysa, uni oshkora tan oladi va uni to`g`rilaydi. Yana bir narsa: hayotda hech qanday yomon ish qilmagan shu

bilan birga yaxshi ish ham qilmagan va boshqalarning noto'g'ri xatti - harakatlariga befarq va o'tib ketgan kishini vijdonli kishi deb bo'lmaydi."

"Faxrlanish" tushunchasi (kollej o'quvchisi) "Faxrlanish – kishining o'z mehnatini bekor ketmaganligini, Vatan foydasiga xizmat qilishini anglatadigan tuyg'udir. Bu – o'z muvaffaqiyat-larining yoki jamodagi boshqa a'zo muvaffaqiyatlarining quvonchini his etishdir. Agar sen yaxshi mehnat qilsang-u, hamma o'rtoqlaring yomon mehnat qilsa, haqiqiy faxrlanish bo'lmaydi. Haqiqiy faxrlanish – o'zini katta olish emas, kibrlanish, dimog'dorlik, boshqalarning soyasida o'zining alohida bo'lib ko'rinishi oson bo'lishi uchun ularning mag'lubiyatga uchrashini istab shuhratparastlik qilish emas."

"Or-nomus" tushunchasi (XI sinf) "Or-nomus" odamni boshqalar ko'z o'ngida o'z obro'sini, mavqeini, shuhratini yoki uning o'zi a'zo bo'lib turgan jamoaning obro'sini, mavqei va shuhratini saqlashga majbur qiladigan hisdir. Bu his barcha xatti-harakatlarda o'z dunyoqarashiga, e'tiqodiga amal qilishga undaydi, xushomad go'ylikka, benomuslik qilishga, o'zini va boshqalarni erga urishga yo'l qo'ymaslikka majbur qiladi. Bu his o'z xatti –harakatining nuqsonsiz bo'lishiga, ma'naviy soflikka undaydi.

Bizning mamlakatimizda shaxsiy or-nomus jamoa or-nomusidan ajralmasdir: bir kishining or-nomusi – u ishlayotgan jamoaning or-nomusi va aksincha, jamoaning or-nomusi bir kishining or-nomusidir (tadqiqot materiallaridan).

O'spirinlarning hammasi ahloqiy tushunchalarni ana shunday yuksak darajada anglaydi deb ayta olmaymiz. O'spirinning e'tiqodi uning tevarak – atrofdagi voqelik ta'sirida rivojlanib borishdan to'g'ri ahloqiy qarashlar va tasavvurlar albatta tarkib topishi uchun demokratiya va mustaqillik sharoitida yashashning o'zi etarlidir, deb aslo xulosa chiqarmaslik kerak.

Psixologlar va pedagoglarning o'tkazayotgan ko'p sonli tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ko'pgina o'spirinlarning litsey yoki kollejlarni bitirish vaqtida kelib jamoa va tarbiyachilar tomonidan to'g'ri g'oyaviy rahbarlik qilmasdan turib shakllanayotgan ahloqiy e'tiqodi hatto, noto'g'ri va etilmagan bo'lishi mumkin. O'spirinning ahloqiy e'tiqodiga to'g'ri g'oyaviy rahbarlik qilganda ham, tasodifiy holatlar, ba'zi bir o'rtoqlar, ko'pincha esa katta yoshdagi kishilarning nojo'ya xatti- harakatlari ham ta'sir ko'rsatishi mumkin (ta'sir ko'rsatmoqda ham). O'spirin yigit va qizlar hamisha ham o'zlari kuzatayotgan u yoki bu hodisalar va faktlarni, ba'zi bir adabiy asarlar, kinofilm`lar, ayniqsa chet el fil`mlari mazmunini to'g'ri tushuna olmaydilar.

Ba`zi alohida jiddiy hollarda noto`g`ri tarbiya, hayotdagi noqulay sharoitlar, vaziyatlar ta`sirida ba`zi bir yigit va qizlarda shunchaki ayrim yanglish fikrlar va noto`g`ri tushunchalar paydo bo`libgina qolmasdan, jamiyatimizga yot bo`lgan ma`naviy printsiplar va ustanovkalar ham qaror topishi mumkin. Buning natijasida tegishli vaziyatlarda xatti – harakatlardagi salbiy holatlar, axloqsizlik, surbetlik, shaxsiy narsalar bilan ijtimoiy narsalar o`rtasida ichki ziddiyatlar va ixtiloflar. mehnatni hurmat qilmaslik kabi xususiyatlar kelib chiqadi. Bunda pedagog va psixologlarning asosiy vazifasi noto`g`ri e`tiqod va qaror topib bo`lgan salbiy xatti – harakatlarni o`zlashtirishdangina iborat emas, soxta va demokratik g`oyalarimizga yot bo`lgan axloqiy e`tiqodning tarkib topishiga yo`l qo`ymasdan, ma`naviy e`tiqodni qaror toptirish jarayonida uning mazmuniga ta`sir ko`rsatishdan iboratdir.

Ijtimoiy axloq tajribalarini asta-sekin egallab borish, ma`naviy ongning o`shishi, fan asoslarini o`rganish, nazariy tafakkurning shakllanishi oqibatida o`spirinlar dunyoqarashi qaror topa boshlaydi. Faqat o`spirin yoshlarga nisbatangina chinakam dunyoqarashni shakllantirish to`g`risida jiddiy gapirish mumkin, buning uchun ma`naviy, aqliy, psixik etuklikning muayyan darajasiga erishilgan bo`lishi zarur. Bizning sharoitimizda to`g`ri dunyoqarash avtomatik tarzda o`z-o`zidan tarkib topadi, deb o`ylash kerak emas. Yot ideologik ta`sirlarning imkoniyati ham mavjudligini hayot tajribalari ko`rsatib turibdi. Shuning uchun o`quv yurtlarining rahbarlari, o`qituvchilar, tarbiyachilar o`quvchilarda chinakam ilmiy dnyoqarashni tarkib toptirishda o`z ma`suliyatlarini his etmog`i lozim. Mustaqillik davrida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyatlar, an`analarni e`zozlashni, o`z yaqinlariga mehribon va tanlagan yo`liga – kasbi, maslagi va e`tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. “Yangicha fikrlash” va yangicha tafakkur aynan mastaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarrash va e`tiqoddir. Dunyoqarash –shaxsning shaxsligini (individ emas), uning ma`naviyatini, ijtimoiylashuvi darajasini ko`rsatuvchi kuchli motivlardandir. Shuning uchun ham uning shakllanish va o`zgarish masalasi muhim masalalardan bo`lib, hamma vaqt va davrlarda ham o`ta dolzarb bo`lib kelgan. O`zbekiston o`z mustaqilligiga erishgach jamiyatda tub islohatlar boshlandi. Ana shu islohatlarning asosiy yo`nalishlaridan biri – ma`naviy-ma`rifiy islohatlar bo`lib, uning asosiy maqsadi jamiyat a`zolari dunyoqarashini istiqlol ruhida shakllantirishni maqsad qilib qo`ydi. Davlatimizning yoshlar borasidagi siyosatining asosini ham ularda yangicha xurfikrlilik bilan yangicha dunyoqarashni shakllantirish tashkil etadi. Bu

o`rinda psixologiya o`zgarishlar sharoitida e`tiqod, dunyoqarash va ideallar o`zgarishiga sabab bo`luvchi omillarni quyidagilarga ajratadi:

Ma`naviyat va ma`rifat. Ma`rifat bu odamning tabiat, jamiyat va insonlar to`g`risidagi turli bilimlari, tushunchalari, ma`lumotlari majmui bo`lib, uning mazmuni bevosita shaxs dunyoqarashining mazmun mohiyatini belgilaydi, demak yoshlarga qaratilgan va ular o`qib, o`rganish uchun yo`naltirilgan barcha turdagi ma`lumotlar (kitoblar, ommaviy axborot vositalari orqali, muloqot jarayonida), ular asosida shakllanadigan yangicha tasavvurlar yangicha dunyoqarash uchun zamindir. Mustaqillik yillarida, eski, o`zini tarix oldida oqlamagan mafkuradan voz kechildi, yangi mustaqillik g`oyasi, uning asosiy tamoyillari, yoshlarni ma`rifatli qilish borasidagi vazifalar belgilandi. Ular asosida "Ta`lim to`g`risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi qabul qilindi. Ular yoshlarning eng ilg`or ilm-fan yutuqlaridan boxabar qilish, buyuk allomalar merosini chuqur va teran o`rganish, zamonaviy texnologiyalar asosida ta`lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, yoshlarni ma`rifatli qilishning barcha shart-sharoitlarini yaratishni nazarda tutadi. Bu say`i-harakatlar ma`naviyat borasidagi islohotlar, o`zbek madaniyati, san`ati, adabiyotini rivojlantirish ishlariga, tariximizni tiklash borasida amalga oshirilayotgan olamshumul ishlar tabiiy, yoshlarimizda yangicha dunyoqarashning shakllanishiga asos bo`ladi.

2. Oila. Yurtimizda oila hamisha davlat ximoyasida va oliy qadriyat sifatida e`zozlanadi. Oila ijtimoiylashuvning asosiy va muhim o`chog`i bo`lgan uchun ham uning shu muhitda tarbiyalanayotgan yoshlar e`tiqodi va dunyoqarashidagi roli sezilarlidir. Respublikamizda "Oila yili" deb e`lon qilinishi, "Oila" ilmiy –amaliy Markazi o`z faoliyatini boshlashi, jamiyatda yoshlar tarbiyasi borasida oilaning roli va mas`uliyatini oshirishga qaratilgan muhim tadbir bo`ldi va ularda yurtga, Vatanga, yaqinlariga sadoqat, muhabbat hislarini tarbiyalash orqali dunyoqarashlari mazmuniga ham ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

3. Mafkura. Har bir davrning o`z mafkurasi bo`ladi. Va u shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida uning ongiga ta`sir ko`rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Kommunistik mafkuradan batamom voz kechgan jamiyatimizda yangi, mustaqillik mafkurasi shakllanmoqda. Zero, mafkura jamiyat a`zolarining tabiat, jamiyat va ijtimoiy jarayonlar xususidagi g`oyalari, bilimlari majmui bo`lib, har bir ijtimoiy guruh o`z e`tiqodiga mos mafkurani tanlaydi. Mustaqillikdan ruhlangan, uning moddiy va ma`naviy ne`matlaridan bahramand bo`layotgan o`zbekistonliklar o`tgan qisqa vaqt mobaynida uning

qadriyatlari, har bir shaxsga yaratilayotgan cheksiz imkoniyatlari, ilm va bilim borasidagi shart-sharoitlarni anglab o`zlari ongli ravishda ana shu tuzumga sadoqat va uni sevish, ardoqlash va ximoya qilishga tayyorgarlik falsafasini shakllantirmoqdalar. Yangi mafkura mustaqillik va milliy qadriyatlar g`oyasi ta`sirida shakllanmoqda va bu tabiiy, birinchi navbatda yoshlar dunyoqarashini o`zgartiruvchi muhim shartdir. Bunda fan asoslarini o`spirin tomonidan puxta o`zlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bilimlar amaliy tajriba bilan qo`llanilgandagina e`tiqodga aylanadi. Dunyoqarashni yodlab olish, o`zlashtirish mumkin emas.

4. Ijtimoiy ustanovkalar. Sof psixologik ma`noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o`zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm –bu ijtimoiy ustanovkalardir. Bu-shaxsning atrof muhitda sodir bo`layotgan ijtimoiy hodisalarni, ob`ektlarni, ijtimoiy guruhlarni ma`lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o`rnatishga ruhiy ichki xozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o`zgartirishga aloqador kategoriyadir.

Rus psixologi V.A. Yadov o`zining dispozitsion kontseptsiyasini yaratib, unda ustanovkalarni to`rt bosqich va to`rt tizimli sifatida tasavvur qilgan.

A) Elementar ustanovkalar (set)-oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko`pincha ongsiz tarzda hosil bo`ladigan ustanovkalar. Ularni o`zgartirish uchun moddiy shart-sharoitlarni va odamdagi ehtiyojlar tizimini o`zgartirish kifoya.

B) Ijtimoiy ustanovkalar (attitud) –ijtimoiy vaziyatlar ta`sirida ijtimoiy ob`ektlarga nisbatan shakllanadigan ustanovkalar. Ularni o`zgartirish uchun ijtimoiy shart-sharoitlar va shaxsning ularga nisbatan baho va munosabatlari tizimini o`zgartirish kerak.

V) Bazaviy ijtimoiy ustanovkalar – ular shaxsning umumiy yo`nalishini belgilaydi va ularni o`zgartirish e`tiqodlar va dunyoqarashni o`zgartirish demakdir.

G) Qadriyatlar tizimi – ular avlodlararo muloqot jarayonining mahsuli sifatida jamiyatda qadr-qimmat topgan narsalarga nisbatan ustanovkadir.

II Bob. Psixologiyada manipulyatsiya harakatlari muommosini amaliy jihatdan tadqiqot qilish

Tadqiqot tashkilotlari va metodikasi Bu diplom ishimizning amaliy qismining asosiy vazifasi pedagogik ishda manipulyatsiya muommasi o'quvchi va o'qituvchilar munosabatlarini aniqlash hisoblanadi. Buning uchun anketa metodidan foydalanamiz.

Kollej o'quvchilariga anketa savollari

1. Psixologik rejada «manipulyatsiya» so'zining ma'nosini bilasizmi?
2. Qanday manipulyatsiya usullarini bilasiz?
3. Darslarda o'quvchilar ustidan manipulyatsiya usullardan foydalanasiz?
4. Buni o'ylagan holda ishlay olasizmi?
5. Manipulyatsiya usullari haqida kitoblar o'qidingizmi?
6. Sizningcha o'qituvchi kasbida qo'shimcha manipulyatsiya texnologiyasi haqida ma'lumotga ega bo'lishni xoxlaysizmi?
7. O'qituvchilaringiz sizning ularga manipulyatsiya tasir etishini biladimi?
8. Manipulyatsiya usullardan yashirin turda foydalanishga urunasizmi?
9. Sizningcha manipulyatsiya texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarning psixologiyasiga tasir etadimi ?
10. Sizningcha manipulyatsiya texnologiyasidan foydalangan holda o'qish jarayonida o'quvchilarning tartibiga tasir etish mumkinmi?
11. Konfliktli hollarni yechishda manipulyativlik texnologiyaning foydasi bormi?
12. Sizningcha boshqa yerlarda o'z foydangiz uchun manipulyativlik texnologiyadan foydalansa bo'ladimi ?

1- Kurs kollej o`quvchilari va maktab o`quvchilari orasida anketa usuli bilan so`rovnoma o`tkazich uchun tayorlangan savolnoma.

Kollej o`quvchilari bilan va maktab o`quvchilari uchun

1. Psixologik rejada „manipulyatsiya so`zining ma`nosini bilasizmi?
2. O`qituvchilaringiz sizlarga qarab manipulyatsiya usullarni qo`llanadimi?
3. O`qituvchilaringiz manipulyatsiya harakatlarini sezasizmi?
4. Sizlarga qarab ishlangan manipulyatsiya harakatlaridan zavq olasizmi?
5. Yashirin manipulyatsiya so`zining ma`nosini bilasizmi?
6. Aniq manipulyatsiya harakatlarini bilasizmi?
7. Sizningcha O`qituvchilaringiz yashirin manipulyatsiya harakatlarini ishlaysizmi?
- 8 O`z tengdoshlaringiz bilan gaplashganda manipulyativlik harakatlaridan foydalanasizmi
9. O`qituvchilaringiz bilan gaplashganda manipulyativlik harakatlaridan foydalanasizmi ?
10. Ota- onangiz bilan gaplashganda manipulyativlik harakatlaridan foydalanasizmi ?
11. O`qituvchilaringiz manipulyativlik harakatlariga sizning munosabatingiz?
12. Sizningcha O`qituvchilar konfliktli hollarni yechishda manipulyativlik xarakatlardan to`g`ri foydalana oladimi?

2.2. «Muloqatchanlik va tashkilotchilik» qobiliyatlarini aniqlovchi metod.

Bu metod 40 ta savol «javob varaqasi», «kalit»dan iborat bo`lib, bizga tekshiruvchilarni muloqotchanlik va tashkilotchilik xususiyatlarini aniqlab olishga imkon berdi.

Ushbu test bo`yicha olingan ma`lumotlarni qayta ishlash va baholash quyidagicha amalga oshiriladi: metodikaning barcha bo`limlari bo`yicha kalit bilan «xa» javobiga «+» belgisi, «yo`q» javobiga «-» belgisi qo`yiladi.

Savolnomada toq raqamlar boshlangan savollar muloqotga kirisha oluvchanlik qobiliyatlarini aniqlaydi, juft raqamdan boshlangan savollarni esa shaxsning tashkilotchilik qobiliyatlarini o`rganishga qaratilgan, ya`ni savolnoma bo`yicha muloqatchanlikka va tashkilotchilikka aloqador savollar galma- galdan beriladi. Natijalar jadvaldagi belgilar bilan solishtirilib chiqiladi, agarda belgilar (savoldagi va jadvaldagi belgi) mos kelsa u holda bu javob buyicha 1 ball baho qo`yiladi. Agar belgilar mos kelmasa, hech qanday baho qo`yilmaydi. Belgilarni solishtirish va baholar sonini aniqlash ustin bo`yicha olib borilgani ma`qul. Birinchi ustun muloqotchanlikka oid savollar bo`yicha baholar tashkilotchilikka oid baholar yoziladi.

Javoblar va jadvaldagi belgilar solishtirilib belgilangandan so`ng har ustun bo`yicha umumiy baholar soni yig`ib chiqiladi va qo`yidagi usul orqali ko`rsatkich koeffitsenti aniqlanadi.

$$(K.koef.M.T.= T (baholar soni) 0,05$$

M- muloqotchanlik

T- Tashkilotchilik

$$K = \frac{m}{20} : m \text{ yoki } K = 0,05 * m$$

Bu yorda K- baholash koeffitsenti, m – mos kelgan javoblar soni.

U yoki bu sanoq diapozondagi sanoq ko`rsatkichlariga Q bahosi tegishli.

Muloqotchanlikka oid qobiliyatlar klassifikatsiyasi:

Muloqatchanlik koeffitsenti	Muloqatlilik qobiliyatlari
0,10 – 0,45 bo`lsa	Past darajada
0,46 – 0,55 bo`lsa	Past o`rta
0,56 – 0,65 bo`lsa	O`rta
0,66 – 0,75 bo`lsa	Yuqori
0,76 – 1 bo`lsa	Juda yuqori

Tashkilotchilik xususiyatlari qo`yidagi maxsus shkala bo`yicha aniqlanadi.

Tashkilotchilik koeffitsenti	Tashkilotchilik qobiliyatlari
0,20 – 0,55	Past darajada
0,56 – 0,65	Past o`rta
0,66 – 0,70	O`rta
0,71 – 0,80	Yuqori
0,81 – 1	Juda yuqori

Muloqotchilik va tashkilotchilik xususiyatlarini besh bosqich buyicha aniqlash mumkin.

Qo`yidagisavollar berilgan bo`lib, sizdan ularning har biri «ha», «yo`q» deb javob berishni so`raladi.

1. Doimo muloqatda bo`lib turgan do`stlaringiz ko`pmi?

2. Do`stlaringizni o`z fikringizga ishontira olishning uddasidan tez-tez chiqib turasizmi?

3. O`rtoqlaringizdan birontasi sizni xafa qilib quysa, anchagacha bu ko`ngilsizlikni xis qilib yurasizmi?

4. Mavjud qiyin ahvollarda doimo to`g`ri yo`l topib ketishingiz qiyinmi?

5. Xilma-xil odamlar bilan yangi tanishuvlarga intilasizmi?

6. Ijtimoiy ishlar bilan shug`llanishni yoqtirasizmi?

7. Sizga kitoblar bilan yoki u bu ish bilan mashg`ul bo`lish, odamlar orasida vaqtni o`tkazishga nisbatan ma`qulroqmi?

8. O`z hoqishingizni amalga oshirayotganingizda to`siqlar paydo bo`lib qolsa o`z intilishingizdan tezda voz kechasizmi?

9. Yoshi sizdan ancha kata odamlar bilan tezda kirishib keta olasizmi?

10. Har qil uyinlar topi shva tashkil etishni yaxshi ko`rasizmi?

11. O`zingiz uchun yangi bo`lgan do`stlar yoki mehmonlar davrasiga qo`shilishda qiyinchilik sezasizmi?

12. Bugun qilishi mumkin ishlarni tez-tez keyingi kunlarga o`tkazasizmi?

13. Noma`lum kishilar bilan muloqatga kirishishi osanmi?

14. Do`stlaringiz sizning fikringiz bilan hisoblashib ish tutishlariga harakat qilasizmi?

15. Yangi kollektivga moslashishda qiyinchilik sezasizmi?

16. Sizda boshqa odamlar bilan ularning o`z so`zlari ustidan chiqmaganliklari, o`z majburiyatlari va ma`suliyatlarini bajarmaganliklari yuzasidan hech qanday kelishmovchiliklar bo`ladimi?

17. Qo`lay vaziyat bo`lganda siz yangi odam bilan tanishish va gaplashishga harakat qilasizmi?

18. Muhim ishlarni hal qilishda ko`pincha tashabbusni o`z qo`lingizga olasizmi?

19. Atrofingizdagi odamlar sizning g`ashingizga tegib va o`zingiz yakka qolgingiz keladimi?

20. Siz uchun notanish bo`lgan sharoitda to`g`ri yo`l topib ketishingiz qiyinmi?

21. Har bir odamlarning orasida bo`lish sizga yoqadimi?

22. Boshlagan ishingizni oxiriga etkazmasangiz achinasizmi?

23. Boshqa odamlar bilan tanishuv vazifasi oldingizda turgan bo`lsa u holda qiyinchilik yoki uyalish hollarini xis qilasizmi?

24. Atrofingizdagilar bilan ko`p muloqatda bo`lganingizdan charchab qolasiz, deb tasdiqlash to`g`rimi?

25. Ko`pchilik o`ynaydigan o`yinlarda ishtirok etishni yaxshi ko`rasizmi?

26. Boshqa odamlarni shaxsiy hayotiga aloqalar masalalarni hal qilishda qatnashishga ko`p holllarda tashabbus ko`rsatasizmi?

27. Siz yaxshi taniydigan odamlar orasida o`zingizni ishonishsizroq tutasiz deb aytish mumkinmi?

28. O`zingizni aqlingizni isbotlashga doim ham harakat qilmaysiz deb takidlash mumkinmi?

29. O`zingizga kamroq tanish bo`lgan do`stlar guruhiga qiziq suhbat olib bora olishingizga ishonchingiz komilmi?

30. Makgatabdagi ijtimoiy ishlarda ishtirok etganmmisiz?

31. O`z tanish bilishlaringiz doirasini cheklashga, ularni sonini ko`paytirmaslikka intilasizmi?

32. Agar sizning fikringizni do`stlaringiz darhol qabul qilmasa, siz o`z fikringiz va qaroringizga qat`iy turmaysizmi?

33. Sizga kam tanish bo`lgan davraga tushib qolsangiz o`zingizni erkin his qilasizmi?

34. O`z do`stlaringiz uchun turli tadbirlarni tashkil etishga hohlab kirishasizmi?

35. Ko`pchilik odamlardan iborat guruhlar oldida gapirayotganda bezovtalik va ishonchsizlik xis etasizmi?

36. Ishga aloqador yoki shaxsiy uchrashuvlarga tez-tez kechikib turasizmi?

37. Do`stlaringiz ko`p deb ta`kiidlash mumkinmi?
38. Ko`proq boshqa odamlarnig diqqat markazida bo`lasizmi?
39. Yaxshi tanish bo`lmagan odamlar bilan muloqatda bo`lganingizda o`zingizni ko`pincha noqulay xis etasizmi?
40. Ko`pchilik odamlardan iborat davralarda o`zingizni ishonchsizroq deb aytish mumkinmi?

2.3. Irodani o`rganish testi

Irodani psixologik tahlilidan va talqinidan kelib chiqqan holda irodaviy holatni tashxis qilish uchun mamlakatimizda ishlab chiqilgan testdan tadqiqotimizda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

Testning mohiyatiga ko`ra, uning har bir bandiga “Ha” yoki “Yo`q” deb javob berish nazarda tutiladi.

1. Turmushdagi muvaffaqiyat tasodiflarga ko`ra, oldindan qilingan hisob-kitoblarga ko`proq bog`liq bo`ladi, deb o`ylayman.
2. Agar o`zimning sevimli mashg`ulotlarimdan ayrilsam, unda men uchun hayotning mazmuni yo`qoladi.
3. Men uchun har qanday ishning oqibati, natijasiga ko`ra, uning echimini topish jarayoni muhim.
4. Men odamlarning o`z yaqinlari bilan bo`lgan munosabatlarining yaxshi emasligidan ko`ra, ishdagi muvaffaqiyatsizlikdan ko`proq qayg`uradilar, deb hisoblayman.
5. Mening fikrimcha, ko`pchilik odamlar yaqin kelajakka mo`ljallangan maqsad bilan emas, balki uzoqqa mo`ljallangan maqsad bilan yashaydilar.
6. Agar imkoniyat bo`lsa-da, lekin hech kim sezmasligiga ishonchim komil bo`lsa ham nojo`ya harakat qila olmayman.
7. Mening hayotimda muvaffaqiyatsizliklardan ko`ra, muvaffaqiyatli kunlar ko`p bo`lgan.
8. Menga amaliy, ishchan, ishbilarmon odamlardan ko`ra, his-tuyg`uli, ko`ngilchan inson ko`proq yoqadi.
9. Hatto oddiy ishda ham men uning ba`zi elementlarini takomillashtirishga harakat qilaman.

10. Muvaffaqiyatga erishish haqidagi fikrlarga berilib ketgan vaqtlarimda ehtiyotkorlik choralarini unutib qo`yishim mumkin.
11. Yoshligimda ota-onam meni dangasa, deb hisoblar edi.
12. Men o`zimni muvaffaqiyatsizliklarimga sharoit emas, balki ko`proq o`zimni aybdor, deb hisoblayman.
13. Ota-onam meni qattiq nazorat qilishgan.
14. Menda qobiliyatga nisbatan sabr-toqat kuchli.
15. O`z maqsadlarimdan qaytishga muvaffaqiyatga erisha olmasligim haqidagi fikr emas, balki dangasalik sabab bo`ladi.
16. Men o`zimni o`zimga ishongan odamman, deb hisoblayman.
17. Muvaffaqiyatga erishish uchun garchi imkoniyatlar mening foydamga bo`lmasa ham tavakkal qilishim mumkin.
18. Men tirishqoq odam emasman.
19. Hamma ishlar tekis, me`yorida ketayotgan bo`lsa, unda mening g`ayratim yanada oshadi.
20. Agar men gazetada ishlaganimda edi, unda turli voqealar haqida yozishdan ko`ra, ko`proq odamlar yaratgan yangiliklarni yozgan bo`lar edim.
21. Mening yaqinlarim, odatda, shaxsiy rejalarim bilan hamfikr bo`lmaydilar.
22. Mendagi hayotga nisbatan talablarimning darajasi o`rtoqlarimning shunday talablaridan pastroq.
23. Men o`z maqsadlarimga erishish yo`lida qat`iyman.

Ballar yig`indisi 0-9 dan past bo`lganda:

– Sizning faoliyatingizda, xulq-atvoringizda, muomalangizda muvaffaqiyatga ehtiyoj yaqqol ko`rinmaydi.

10-13 ballgacha: Sizda muvaffaqiyatga intilish bor, lekin faoliyatingizni, xulq-atvoringizni, muomala jarayoningizni tashkil qilishda har doim ham muvaffaqiyatga ehtiyoj sezavermaysiz.

14-23 ballgacha: Sizning faoliyatingizda, xulq-atvoringizda, muomala jarayoningizda muvaffaqiyatga ehtiyoj yuqori darajada, har doim muvaffaqiyat bo`lishiga ishonasiz, qat`iysiz, u yoki bu darajada murakkab, lekin bajarilishi, hal qilinishi mumkin ishlarni yoqtirasiz.

Boshqacha so`z bilan aytganda: 0-9 ballar oralig`i past, 10-13 ballarniki o`rtacha, 14-23 ballar to`plansa yuqori, deb izohlanadi.

**2.4. Elersning “Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi” va
“Mag`lubiyatdan qochish motivatsiyasi” metodikalari.
Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini aniqlash
metodikasi (T. Elers)**

Quyida berilgan savollarga “ha” yoki “yo`q” javobidan birini belgilash kerak.

1. İkkita variantdan birini tanlash imkoniyati bo`lganda, noma`lum vaqtga cho`zib yotgandan ko`ra, bittasini tezroq bajarishga kirishgan ma`qul.

2. Men 100 foizga ishni yaxshi bajara olishimga ishonchim bo`lmasa, juda tez achchiqlanaman.

3. Men ishlayotgan vaqtimda shunday bo`ladiki, men butun vujudim bilan unga kirishib ketgandayman.

4. Muamoli vaziyat paydo bo`lganda, men oxirgilardan bo`lib qaror qabul qilaman.

5. Agar ikki kun qatoriasiga ishsiz qolsam, men o`zimni qo`rga joy topa olmayman.

6. Ba`zi kunlari mening yutuqlarimni o`rtachadan past deb baholash mumkin.

7. Men o`zimga boshqalarga nisbatan talabchanroqman.

8. Men boshqalarga nisbatan mehribonroq va g`amho`rroqman.

9. Men qiyin bir ishdan bosh tortganimdan so`ng, ko`pincha afsuslanib, o`zimni koyiyman, chunki bilamanki, agar shu ishni qilganimda, albatta muvaffaqiyatga erishgan bo`lardim.

10. İsh jarayonida men biroz xordiq chiqarishga muxtoj bo`laman.

11. Tirishqoqlik mendagi asosiy sifat emas.

12. Mening ishdagi yutuqlarim har doim ham bir xil bo`lavermaydi.

13. Meni o`zim shug`ullanayotgan ishdan boshqa ishlar o`ziga rom etadi.

14. Men maqtashganidan ko`ra, tanbeh berishsa kirishibroq ishlayman.

15. Meni xamkasblarim meni ishchan odam deb atashlarini bilaman.

16. Paydo bo`lgan to`siqlar qarorlarimni qat`iyroq qiladi.

17. Mening izzat nafsimga tegish oson.
18. Ko'tarinkiliksiz ishlagan chog`larimni tezda sezishadi.
19. Ishni bajarish jarayonida men boshqalarning yordamiga tayanmayman.
20. Ba`zan men hozir bajarishim lozim bo'lgan ishni keyinga qoldiraman.
21. Odam faqat o'ziga ishonishi kerak.
22. Hayotda puldan ham muhimroq bo'lgan narsalar kam.
23. Men muhim ishni bajarishim lozim bo'lgan paytlarda boshqa xech narsani o'ylamayman.
24. Men boshqa ko'pchilikka nisbatan izzattalab emasman.
25. Ta`til nihoyasida men odatda ishga qaytishimni o'ylab quvonaman.
26. Ishlagim kelgan paytlarda, men ishni boshqalarga nisbatan sifatliroq va yaxshiroq bajaraman.
27. Men tirishib, sidqidildan ishlaydigan odamlar bilan tez kirishib ketaman.
28. Men bekorchilik paytlarimda o'zimni bexalovat xis qilaman.
29. Men boshqalarga nisbatan ko'proq mas`uliyatli ishlarni bajaraman.
30. Qaror chiqatish mas`uliyati menga yuklansa, yaxshiroq bajarishga intilaman.
31. Mening do'stlarim meni ba`zan dangasa deb hisoblashadi.
32. Mening yutuqlarim ma`lum ma`noda kasbdoshlarimga ham bog`liq.
33. Rahbarning ra`yini qaytarish befoyda ish.
34. Ba`zan qanday ishni bajarayotganliginigni ham bilmaysan.
35. Ishim yurishmaganda men betoqat bo'lib qolaman.
36. Men odatda o'z yutuqlarimga kam ahamiyat beraman.
37. Boshqalar bilan hamkorlikda ishlaganimda, mening ishim boshqalarnikidan samaraliroq bo'ladi.
38. Ko'pgina boshlab qo'ygan ishlarimni oxiriga etkazmaganman.
39. Men ish bilan band bo'lmagan odamlarga havas qilaman.
40. Men hukmronlikka va amalga intilgan odamlarga havas qilmayman.

41. Men o'zinning haqligimga ishonsam, haqiqatni isbot etish uchunhar narsaga borishga tayyorman.

Test kaliti:

“ha” uchun 1 ball: 2, 3,4,5,7,8,9,10,14,15,16,17,21,22,25,26,27,28,29,30,32,37,41.

“yo'q” uchun 1 ball: 6,13,18,20,24,31,36,38,39.

1,11,12,19,23,33,34,35,40 savollarga berilgan javoblar hisobga olinmaydi.

Natija:

1 : 10 ballar muvaffaqiyatga nisbatan motivatsiya past;

11 : 16 ballar, motivatsiya darajasi o'rtacha;

17 : 20 ballar, anchagina yuqori motivatsiya;

21 balldan yuqori, muvaffaqiyatga nisbatan juda yuqori motivatsiya.

Mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasini aniqlash metodikasi (T. Elers)

Har bir qatorida 3 tadan so'z tavsiya etiladi. Shu so'zlardan o'zingizga yaqin bo'lganini tanlang.

Nomer	A	B	V
1	Dadil	Xushyor	Uddaburon
2	Kamsuqum	Tortinchoq	Qaysar
3	Extiyotkor	Qat'iyatli	Umidsiz
4	O'zgaruvchan	Beparvo	E'tiborli
5	Aqlsiz	Qo'rqoq	Loqayd
6	Chaqqon	Jasur	O'ylab ish ko'radigan
7	Sovuqqon	İkkilanuvchan	Epchil
8	İntiluvchan	Engiltak	Qo'rqoq
9	O'ylab ish qilmaydigan	O'zini ko'rsatadigan	Oldindan ko'ra olmaydigan
10	Optimist	Vijdonli	G'amho'r
11	Melanxolik, sust	Shubxali	Beqaror
12	Qo'rqoq	Pala partish	Xayajonlanadigan
13	Mo'ljalni oladigan	İndamas	Xadiksiraydigan
14	E'tiborli	Befarosat	Mard, dadil
15	Farosatli	Shijoatli	Mardona

16	Uddaburon	Extiyotkor	O'ylab ish qiladigan
17	Tez hayajonlanadigan	Xayol parishon	Uyatchan
18	Kamtar	Extiyotsiz	Bee`tibor
19	Xadiksiraydigan	Qat`iyatsiz	Asabiy
20	Intizomli	Sadoqatli	Niyat bilan ish ko`radigan
21	O'ylab ish qiladigan	Dadil, qo`rqmas	Shijoatli
22	Tobe	Loqayd, beparvo	Pala partish
23	Ehtiyotkor	Beg`am	Chidamli
24	Oqil	Mehribon, g`amho`r	Jasoratli
25	Oldindan bashorat qiluvchi	Cho`chitib bo`lmaydigan	Vijdonli
26	Shoshqaloq	Qo`rqoq	Beg`am, tashvishsiz
27	Parishon	Mo`ljalli, niyatli	Umidsiz, pessimist
28	Kuzatuvchan, e`tiborli	Muloxazali	Uddaburon
29	Pismiq, indamas	Betartib	Qo`rqoq
30	Kelajakka ishongan	Xushyor	Beg`am, betashvish

Test kaliti:

											0	1	2	3	4	5
	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	

Javoblarning kalitga mos kelganini hisoblab umumiy ball olinadi.

1 : 10 ballar, mag`lubiyatdan qochish motivi quyi darajada;

11 : 16 ballar, mag`lubiyatdan qochish motivi o`rtacha darajada;

17 : 20 ballar, mag`lubiyatdan qochish motivi yuqori darajada;

20 balldan yuqori, mag`lubiyatdan qochish motivi o`ta yuqori darajada.

X U L O S A

Psixologiya ilmda manipulyativlik harakatlar muammosi haqida adabiyotlarni o'rganib shunday xulosaga keldik, «manipulyatsiya» so'zining ma'nosi texnikadan, itimalogiyadan, politologiyadan kelib chiqqan. Biroq hozirgi davrda manipulyatsiya so'zining ma'nosi to'liq ishlatilmaydi. Har turli mualliflarning manipulyativlik harakatlar haqida o'z asarlarida shunday xulosaga keldik bu psixologik tarafdin insonga ta'sir etish yo'li bilan o'z hoqish istaklariga erishishiga aytamiz. Manipulyativlik harakatlar shunday qo'llaniladi agar muallif o'zining izlagan narsasini adresatga buyurgisi kelganda adresat esa huddi shunday qilib o'ylaganday bo'lib qoladi. SHuni aytib o'tish keraki manipulyativlik harakatlar yashirin turda bo'ladi. SHuning bilan birga manipulyatorchi o'zi hoxlagan narsalarini bildirmay ishlatishida bo'lib hisoblanadi. Bu yerda manipulyatorchining mahorati bo'lishi kerak. Manipulyativlik harakatlar xar qanday psixologik tasirlarga o'xshab o'z tiplarga ega. Psixologik tasir information kanallar orqali tasir etadi (verbal va noverbal). Manipulyativlik harakatlar verbal va noverbal bo'lib bo'linadi. Ochiq turda bunday tiplar yo'q. Yana bilgan va bilmagan holdagi manipulyativlik harakatlar bo'ladi. Suhbatlashganda sensorlik sistemasiga qarab parametrlarga bo'linadi. NLP shu parametrlari bo'yicha quyidagi tiplarga bo'linadi. Audil(eshituvchi tip) Vizual tip (ko'ruvchi) Kinestetiklar (harakatlanuvchi) Digitallik (Hayol qiluvchi) Manipulyativlik harakatlar manipulyatorchining qanday mahorat bilan foydalanishiga bog'liq. Ko'pgina adabiyotlarda manipulyativlik fenomini haqida to'liq ma'lumotlar berilgan. Biroq bu adabiyotlarda o'qib chiqqanimizda har doim bir savolning qaytalab kelishiga guvoh bo'lamiz .Bu muommani bir necha guruhga bo'lamiz. Yashirin turdagi manipulyativlik tasir usul va tasir etish darajalari kuch ishlatish, tasir etish, tasir etish belgilari robotlashganlik mavzusi tasir etish adresatning mashinaga o'xshash harakatlanishida. O'qituvchilarning harakatlari odamiylikga qaratilgan bo'lib o'quvchini o'ylagan holda tuzilishi kerak. Biroq o'qituvchilar

ko'p vaqtlarini o'zining pedagogic tarafdin yuqori qo'yib manipulyativlik harakatlarni ishlaydi.

Savol tug'ilishi mumkin: Pedagogik xizmatda pedagog «manipulyativlik harakatlarni» ishlashga bo'ladimi? Bu savolga birdek javob bera olmaymiz. Ayrim mualliflar pedagogic ishda manipulyativlik harakatlardan foydalanishga bo'lmaydi desa boshqalari ayrim hollarda foydalansa bo'ladi. Bu masala amaliyotda tadqiqot qilinmagan. Diplom ishimizning amaliy qismida pedagogic jarayonlarda manipulyativlik harakatlarning o'zgachaliklari tadqiqot qilingan. So'raganlardan ko'p qismi manipulyativlik texnologiya haqida tushunchasi bor va o'z faoliyati davomida bundan foydalangan. Informatsiya internetning rivojlanishi o'quvchilarda manipulyativlik harakatlar haqida to'liq tushuncha olishiga mumkinchilik beradi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov. «O`zbekistonning o`z istiqbol va taraqqiyot yo`li» Toshkent 1992 yil.
2. I.A.Karimov. «O`zbekiston XXI asr bo`lag`asida» Toshkent 1996 yil
3. I.A.Karimov. «Barkamol avlod orzusi» Toshkent 1999
4. Avesto. Tarixiy adabiy yodgorlik. Askar Mahkam tarjimai - «Sharq», 2001.- T.:384b.
5. Adizova T.M. Boshqaruv muloqoti psixologiyasi. –T: 2000.-19 b.
6. O`qituvchilar bilan 5 kurs talabalari pedagogik faoliyatda manipulyativlik harakatlardan foydalansa bo`ladi.1 kurs talabalari bilan umumiy dunyoqarashini bildiradi Adler G. «Texnologiya NLP», S-P.: Piter, 2001 j.
7. Bodalev A. A. «Psixologiya obsheniya», Minsk:1995 j.
8. Vagin I. G. «Psixologiya zla», M.: Piter, 2001 j.
9. Vagin I. G. «Uroki psixologicheskoy zashiti», S-P.: Piter, 2001 j.
10. Vil`son G. «Yazik jestov», S-P.: Piter, 2001 j.
11. Znakov V. V. stat`ya «Makiveallizm, manipulyativnoe povedenie i vzaimootnoshenie», jurnal «Voprosi psixologii» 2002 j. № 6
12. Karnegi D «Kak priobretat` druzey i okazivat` vliyanie na lyudey», M.: 2000 j.
13. Karnegi D «Yazyk ubejdeniy», M:1999
14. Kasatkin S. N. «Master obsheniya», S-P.: Piter, 2001 j.
15. Kozlov N. M. «Psixologiya vzaimootnosheniy», M.: AST-press, 2001 j.
16. Levi V. A. «Iskusstvo byt` drugim», M.: Vlados, 1981 j.
17. Leont`ev A. A. «Psixologiya obsheniya», M.: ACT 2000jg.
18. Lepskiy V. e. stat`ya «Manipulyativnoe vozdeystvie i reflektivnoe povedenie», Psixologicheskij jurnal 1996 j. № 6 s. 139-145
19. Litvak e. M. «Komandovat` i podchinyat`sya» Rostov-na-Donu: Svet, 1997 j.
20. Maslova I. «Manipulyativnie texnologii» Trud. – 2001 – 6 sent. – s. 11
21. Mixaylova T. I. stat`ya «Manipulirovanie po-kitayski», jurnal «Litseyskoe i gimnazicheskoe obrazovanie» 2003 j. № 9 c 43
22. Piz A. «Yazik vzaimootnosheniy», M.: Eksimo-press, 2001j.

23. Piz A. «Yazik razgovora», M.: Eksimo-press, 20
24. Smirnova I S « A vas programmirovali?» jurnal «Nauka i religiya» 2001 j. № 9 s 46-49
25. Suxarev I. I. «Etika i psixologiya delovogo cheloveka», M.: Vlados, 1999 j.
26. Sheynov V. P «Skrytoe upravlenie chelovekom», M.: AST-press, 2002 j.
27. Sheynov V. P. «Effektivnaya reklama. Sekretы uspexa», M.: 2003
28. Shostrom E. «Anti – Karnegi», . Minsk, 1999j.
29. Nemov R.S., Altunina I.R. Sotsial`naya psixologiya: Uchebnoe posobie. - SPb.: Piter, 2008.- 432s.
30. Soginov N.A., Usmanov E.Sh. Etnopsixologicheskie osobennosti podgotovki molodyoji k semeynoy jizni. Teoretiko-prakticheskie problemi pedagogicheskogo tselepolaganiya. Sb. Nauchn. trudov. - Tashkent, 1991. - S. 91-99.
- 31.E.G.G`oziev. «Psixologiya» (Yosh davrlari psixologiyasi) Toshkent, «O`qituvchi», 1994 yil
32. E.G.G`oziev «Pedagogik psixologiya» Toshkent, 1995 yil
33. M.G.Davletshin «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya» Toshkent. TDPU. 2009 yil
- 34..Leontev.A.A. «Pedagogicheskoe obshenie» Moskva 1978
35. Bandura, A. & O'alters, R.. Social Learning and Personality Development. New York: Holt, Rinehart & O'inston, 1963, P.29-33
36. Gilligan C. In a different voice: psychological theory and o'omen development. Cambridge (Mass.). 1982, P. 18-19

www.psycho.all.ru

www.expert.psychology.ru

www.psychology.net.ru

www.psy.piter.com.